

TADBIRKORLIK MUHITINI YAXSHILASH ULARNI BARQAROR IQTISODIY O‘SISH UCHUN SHART-SHAROITLAR YARATISH BORASIDAGI ISLOHOTLAR

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

mustaqil tadqiqotchisi

Botirov Muxiddin Nizomidinovich

Annotasiya: Maqolada pandemiyaning O‘zbekiston iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta‘sirini yumshatish va soliq to‘lovchilarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida byudjet siyosatini amalga oshirish imkoniyatlari, ko‘rilayotgan chora-tadbirlar tahlil qilingan holda, ma‘murchilikni takomillashtirish orqali tadbirkorlik sub‘ektlariga qulay shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratish bo‘yicha xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: pandemiya, byudjet siyosati, inqiroz, byudjet, soliq imtiyozlari, soliq ma‘murchiligi, tadbirkorlik sub‘ektlari, soliq hisoboti, soliq tushumlari, soliq imtiyozlari, soliq, soliq stavkasi, preferensiyalar, soliqlar.

Kirish: Jahonda global miqyosdagi integratsiya va raqobatlashuvning kuchayishi sharoitida soliq imtiyozlarini qo‘llash, ularning samaradorligini ta‘minlash orqali iqtisodiy faoliyatni tartibga solish dastaklaridan keng foydalanilmoqda. “Birgina Rossiya Federatsiyasida soliq to‘lovchilarga 2018-yilda 3,095 trln. rubl miqdorida soliq imtiyozlari berilgan. Bu ko‘rsatkich 2019-yilda 3,194 trln. rublga, 2020 va 2021-yillarda mos ravishda 3,286 trln. rubl va 3,361 trln. rublga ko‘tarilishi kutilmoqda”. Soliq imtiyozlaridan foydalanish samaradorligi aniq natijadorlikka asoslangan bo‘lishi zaruratga aylangan bo‘lib, tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, “Buyuk Britaniyada 34,8 foiz, Germaniyada 25,0 foiz va Fransiya 18,7 foiz soliq imtiyozlari samarali imtiyozlar deb tan olingan, mos ravishda 30,2,

25,0 va 36,9 foizi samarasiz ekan”. Bundan ko‘rinadiki, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar soliq siyosatida soliq imtiyozlari rag‘batlantiruvchi omil sifatida qaralmoqda. Bizda esa pandimiya sharoitida investitsiyalarni ko‘paytirish tadbirkorlikni rivojlantirish hamda soliq va boshqa majburiy to‘lovlar yig‘iluvchanligining zarur darajasini ta‘minlash, imtiyozlar berish borasida aniq mezon va mexanizmlarni ishlab chiqish, berilayotgan imtiyozlar va preferensiyalarning samaradorligini baholashga alohida e‘tibor berilmoqda.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-apreldagi “Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o‘shish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to‘g‘risida”gi PF-101-son Farmoni bilan soliq qonunchiligiga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar bo‘yicha kiritildi.

Mazkur hujjat bilan inklyuziv va barqaror iqtisodiy o‘shishga erishish orqali kambag‘allikni ikki barobarga qisqartirish, iqtisodiyotda raqobatni ta‘minlash, tadbirkorlik sub’ektlariga teng sharoitlar yaratish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar belgilandi.

Jumladan, Qarorda “tartibga soluvchi gilotina” usulini manzilli qo‘llash orqali imtiyozlar, eksklyuziv huquq va ustunliklarni bekor qilish belgilanmoqda.

2022-yil 1-maydan boshlab norezident jismoniy shaxsning O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan oladigan daromadlari (dividendlar, foizlar va fraxtdan olinadigan daromadlardan tashqari) bo‘yicha jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i stavkasini 12 foiz miqdorida belgilash yuzasidan Soliq kodeksiga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish nazarda tutilmoqda.

Bugungi kunda ushbu stavka 20 foizni tashkil etadi. Stavkaning pasaytirilishi natijasida qariyb 196 ta korxonada qo‘shimcha 34,4 mlrd. so‘mga yaqin mablag‘ qoladi.

Shuningdek, 2022 -il 1-maydan boshlab baliqchilik, ipakchilik va pillachilik, charm-poyabzal va mo‘ynachilik hamda qizilmiya va boshqa dorivor o‘simliklarni

yetishtirish tarmoqlari uchun 6 ta hujjat bilan cheklangan sub'ektlarga tatbiq etilgan soliq va bojxona imtiyozlari mazkur sohalarda faoliyat yurituvchi barcha sub'ektlar uchun tatbiq etiladi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bo'yicha 2020-yil 1-iyulga qadar ma'qullangan va O'zbekiston Respublikasining tijorat banklari orqali qayta moliyalashtiriladigan yoki qayta kreditlanadigan xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlarining mablag'lari (qarzlari, kreditlari) hisobidan olinadigan tovarlar (xizmatlar) bo'yicha soliq va bojxona imtiyozlari bekor qilinmoqda.

Mazkur norma tijorat banklari va tadbirkorlik sub'ektlari o'rtasida yangi tuziladigan bitimlar (rasmiylashtirish shakli va usulidan qat'iy nazar) asosida olinadigan tovarlarga (xizmatlarga) tatbiq etiladi.

Farmon bilan 2022-yil 1-iyuldan boshlab 21 ta hujjat bilan hamda 2023-yil 1-yanvardan boshlab 18 ta hujjat bilan taqdim etilgan individual soliq va bojxona imtiyozlari bosqichma-bosqich bekor qilinmoqda.

2021-yilda hisoblangan soliq imtiyozi summasi qariyb 1 103,0 mlrd. so'm tashkil etgan bo'lib, 2022-yilda imtiyozlar bosqichma-bosqich bekor qilinishi inobatga olib, korxonalar ixtiyorida qariyb 764,7 mlrd.so'm qoladi hamda byudjet qariyb 338,2 mlrd. so'm qo'shimcha tushum ta'minlanadi.

Xulosa va takliflar.

Byudjet samaradorligini aniqlash uchun imtiyozlarning haqiqiy miqdorining tahlil qilinadigan davr uchun ushbu toifadagi xo'jalik yurituvchi sub'ektlardan barcha soliqlar va to'lovlar bo'yicha soliq va bojxona tushumlarining byudjetga mutlaq o'sishiga nisbati sifatida hisoblanishi kerak. Masalan: $Kb.e. = OSLt / (SNt - SNt-1)$, bu yerda: Kb.e. - byudjet samaradorligi; OSLt - oxirgi hisobot yili uchun qo'llanilgan imtiyozlarning miqdori; SNt - oxirgi hisobot yili uchun byudjetga tushgan soliqlar summasi; SNt-1 - hisobot yilida o'tgan hisobot yili uchun byudjetga tushgan soliqlarni umumiy summasi.

Tadbirkorlik sub'ektlarga berilgan imtiyozlarni ijtimoiy samaradorligi quyidagicha bo'lish kerak: qo'shimcha ish o'rinlari yaratish, ish haqini oshirish, mehnat sharoitlari yaxshilash, ijtimoiy yordamga muhtoj shaxslarni ish bilan ta'minlash, tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning ko'paytirish, infratuzilmani rivojlantirish hamda ijtimoiy ahamiyatga ega tadbirkorlik sub'ektlarni sonini oshirish kerak bo'ladi.

Adabiyotlar/Литература/Reference:

Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси- Тош: F.Фуллом 2020.- 640 б.

Ўзбекистон Республикаси Давлат солиқ кўмитаси маълумотлари.

www.soliq.uz.

Нормурзаев У. Тадбиркорларни қўллаб-қувватлашда солиқ имтиёзларини бериш орқали самарали усуллардан фойдаланиш йўллари //Экономика и образование. – 2021. – №. 3. – С. 91-95.